

UBAYDIY TURKIY DEVONIDA ARABIZMLAR

Chimpo'latova Sevara Alisherovna¹

¹*Oriental universiteti Sharq tillari kafedrasи, O'qituvchi*

sevarachimpolatova@gmail.com

MAQOLA MALUMOTI

MAQOLA TARIXI:

Received: 06.06.2025

Revised: 07.06.2025

Accepted: 08.06.2025

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada XVI asr o'zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Ubaydiy va uning "Turkiy devon"i tilshunoslik va adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganiladi. Ushbu devonidagi arabizmlar leksik, morfologik, sintaktik va uslubiy jihatdan ko'rib chiqiladi. Misollar orqali bu arabcha unsurlar o'zbek she'riyatida qanday qabul qilinganini, qanday badiiy vazifani bajarganini aniqlashga harakat qilinadi. Bu nafaqat bir shoir ijodini o'rganish, balki o'zbek adabiy tilining shakllanish bosqichlarida arab tilining tutgan o'rnini tahlil qilish uchun ham muhim ilmiy ishdan biri hisoblanadi.

KALIT SO'ZLAR:

Ubaydiy, turkiy devon, arabizm, leksik tahlil, stilistik vosita, tarixiy tilshunoslik, arabcha o'zlashmalar, poetik til, o'zaro til ta'siri.

KIRISH. Sharq adabiyoti jahon adabiyotining muhim bir qismi bo'lib, o'zbek adabiyoti o'zining mazmunan boyligi, shaklan rang-barabgliji va badiiy kamoloti bilan uni ko'p jihatdan to'ldiradi va shu jihatlari bilan boshqa xalqlar e'tiborini doim o'ziga qaratib kelgan. O'zbek mumtoz adabiyoti hamma davrlarda ham bir xilda rivojlanmagan bo'lsa-da, u o'z tarixi taraqqiyoti davomida ko'pgina iste'dodli ijodkorlarni yetishtirib bergen. Shu nuqtai nazardan XVI asr o'zbek adabiyotida bir necha nufuzli shoir va adablar yuzaga kelgani diqqatga sazovordir.

Bu davrda ko'plab ijodkorlarning she'riy iste'dodi yorqin namoyon bo'ladi. Shunday namoyondalardan biri Yassaviy tasavvuf maktabi vakillaridan biri o'zbek adabiyoti tarixida shoh va shoirlik maqomiga ega bo'lgan ijodkor Shayboniyalar sulolasining yirik vakillaridan biri Ubaydullaxon ajralib turadi. U XVI asrda yashab ijod qilgan. Turkiy xalqlarning adabiy merosi qadimdan boy va rang-barang bo'lib, ularning shakllanishida bir nechta sivilizatsiyalar va madaniyatlar ta'siri seziladi. Jumladan, arab tili va adabiyoti bu

rivojlanishda g‘oyat muhim rol o‘ynagan. Ayniqsa, islom dinining tarqalishi bilan arab tili Markaziy Osiyo xalqlarining diniy, ilmiy va adabiy hayotiga chuqur kirib bordi. Bu holat o‘z ifodasini ayniqsa yozma adabiyotda, xususan, she’riyatda yaqqol namoyon etdi. Shu jihatdan, o‘zbek mumtoz adabiyotining ilk namoyandalaridan biri bo‘lmish Ubaydiy va uning “Turkiy devon”i tilshunoslik va adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan katta qiziqish uyg‘otadi. Ubaydiy devoni tilida arab tilidan kirib kelgan ko‘plab leksik birliklar, iboralar, grammatic shakllar va uslubiy elementlar mavjud bo‘lib, ular adabiy tilning rivojida qanday rol o‘ynaganini, o‘zlashtirish jarayonining bosqichlarini tahlil qilish imkonini beradi. Arabizmlar faqatgina diniy yoki tasavvufiy so‘zlar bilan cheklanmay, balki badiiy ifoda vositasi, poetik ohang va semantik boylik sifatida ham shoirning she’rlarida muhim o‘rin tutadi.

Ushbu maqolada Ubaydiy devonidagi arabizmlar leksik, morfologik, sintaktik va uslubiy jihatdan ko‘rib chiqiladi. Misollar orqali bu arabcha unsurlar o‘zbek she’riyatida qanday qabul qilinganini, qanday badiiy vazifani bajarganini aniqlashga harakat qilinadi. Bu nafaqat bir shoir ijodini o‘rganish, balki o‘zbek adabiy tilining shakllanish bosqichlarida arab tilining tutgan o‘rnini tahlil qilish uchun ham muhim ilmiy asoslardan biri hisoblanadi. Ubaydiy o‘zbek mumtoz adabiyotining yirik vakillaridan biri bo‘lib, uning “Turkiy devon”i tilshunoslik, adabiyotshunoslik va madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan bebaho manbadir. Bu devon o‘z davrining diniy, axloqiy, falsafiy qarashlarini aks ettirgan bo‘lib, arab tilidan o‘zlashtirilgan leksik, morfologik va uslubiy birliklar arabizmlar bilan boyitilgan.

Turkiy tillar tarixida arab tili bilan bo‘lgan lingvistik aloqalar alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ayniqsa, diniy, ilmiy va adabiy asarlar orqali arab tilidan o‘zlashgan so‘zlar leksik arabizmlar muhim o‘rin tutadi⁶. Xususan, klassik turkiy adabiyotda yaratgan shoirlar asarlarida arab tilidan kirib kelgan so‘zlar son jihatdan ko‘pligi va turli soha atamalari bilan boyligi bilan ajralib turadi⁷. Bunday shoirlardan biri Ubaydiy bo‘lib, uning Devoni arabcha so‘zlarning faol ishlatalgan manbalaridan biridir. Ubaydiy o‘zining asarlarida diniy, tasavvufiy, axloqiy va hayotiy mavzularni yoritarkan, arab tiliga xos iboralar, atamalar, grammatic konstruksiyalar va stilistik uslublarni mohirlik bilan qo‘llagan.

Leksik arabizm - bu arab tilidan boshqa bir tilda, masalan, o‘zbek tilida, leksik (ya’ni so‘z boyligi) darajasida o‘zlashgan so‘zlar yoki arab tiliga xos bo‘lgan leksik birliklarning

⁶ Muhammadjonov.A. O‘zbek tilining arabcha so‘zlar lug‘ati. Toshkent: Akademnashr. 2012– B. 7–8.

⁷ Қаюмов А. Ўзбек адабий тили тарихи. Тошкент: Фан нашриети. 1985- B- 134.

ishlatilishidir. Quyida devondan olingan ayrim misollar orqali ushbu leksik arabizmlarning qanday ishlatilgani ko'rsatib o'tiladi.

1. Misol:

Yaqīn birla bildimkim, bu ‘ālam fānidir⁸.

Tarjimasi:

Men ishonch bilan bildimki, bu olam foniydir (ya'ni, o'tkinchidir).

Izoh:

Bu baytda “yaqīn” (يقين) – ishonch, qat'iy bilim) va “fānī” (فاني) – o'tkinchi, abadiy bo'lmagan) so'zleri arab tilidan o'zlashgan.

2. Misol:

Faqīr bo'lsang, sabr et, bu sabr najotdur⁹.

Tarjimasi:

Agar faqir bo'lsang, sabr qil, bu sabr najotdir.

Izoh:

“Faqīr” (فقير) – kambag'al), “sabr” (صبر) – chidam), “najot” (نجاة – qutulish) — barchasi arab tilidan kirgan diniy va axloqiy mazmunli leksik birliklardir.

3. Misol:

Hakīmat aylagay har bir falakda hikmatin¹⁰.

Tarjimasi:

Donoliging bilan har bir osmon qatlamida hikmat ko'rsat.

Izoh:

“Hakīm” (حکیم – dono, donishmand) va “hikmat” (حكمة – donolik, chuqr ma'no) so'zleri arab tilidan kirib, she'riy nutqni ma'naviy jihatdan boyitmoqda.

4. Misol:

Dunyā deb yo'qotma dinni, bu bir imtihondur¹¹.

Tarjimasi:

Dunyo deb dinga zarar yetkazma, bu bir sinovdir.

Izoh:

Bu satrda “dunyā” (دنيا – bu dunyo), “din” (دين – e'tiqod, islom), “imtihon” (امتحان – sinov, mushkullik) arab tilidan kirgan diniy so'zlardir.¹²

⁸ Убайдий.Девон/ Нашрга тайерловчи: А. Жураев- Тошкент: Фан нашриети. 1988- Б-45.

⁹ Убайдий.Девон/ Нашрга тайерловчи: А. Жураев- Тошкент: Фан нашриети. 1988- Б-57.

¹⁰ Ўша асар Б-41.

¹¹ Ўша асар Б-59.

¹² Xamidov, A “Ubaydiy devonida arabcha o'zlashmalar”. Filologiya masalalari, №3. 2019– B. 45–48.

Uning devonidagi leksik arabizmlar faqat so‘z boyligini oshirish bilan kifoyalanmay, balki asarining mazmuniy chuqurligi va uslubiy yuksakligiga ham xizmat qilgan. Shu sababli, Ubaydiy devonidagi arabcha o‘zlashmalarni tahlil qilish nafaqat lingvistik, balki madaniy va adabiy nuqtayi nazardan ham muhimdir¹³.

Shuningdek, O‘zbek adabiy tilining shakllanishida turkiy til asos bo‘lgan bo‘lsa-da, tarixiy taraqqiyot davomida unga boshqa tillardan, ayniqsa arab tilidan sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Bu ta’sir nafaqat leksik darajada, balki sintaktik tuzilmalarda ham yaqqol namoyon bo‘ladi¹⁴. Ayniqsa, diniy va tasavvufiy adabiyot vakillari jumladan, Ubaydiy kabi shoirlarning asarlarida arab tiliga xos sintaktik modellar keng qo‘llanilgan.

Ubaydiy devonidagi baytlarda arab tilidagi izofalar, laqabli va xitob shaklidagi gaplar, duolar, qasamlar va formulaviy iboralar ko‘rinishida ifodalangan sintaktik arabizmlarni kuzatish mumkin¹⁵. Bunday arab sintaksisiga xos konstruktsiyalar, Ubaydiy tilining poetik didi va diniy-falsafiy bilimining ifodasi sifatida xizmat qiladi. Mazkur sintaktik birliklar turkiy she’riyatda arab tilining faolligini ko‘rsatadi va o‘zbek tilining stilistik imkoniyatlarini boyitgan.

Sintaktik arabizm - bu arab tiliga xos bo‘lgan gap tuzilmalari (ya’ni sintaktik konstruktsiyalar)ning o‘zbek (yoki boshqa turkiy) tiliga qabul qilinishi yoki taqlidan qo‘llanishidir. Bunday arabcha sintaksis unsurlari asosan yozma adabiyotda, ayniqsa diniy-tasavvufiy she’riyatda keng uchraydi.

Shoirning devonda arab tilining ta’siri faqat leksik va sintaktik darajada emas, balki morfologik qatlamda ham chuqur iz qoldirgan. Ayniqsa, diniy-falsafiy va tasavvufiy adabiyotda faol ijod qilgan Ubaydiy kabi shoirlar o‘z asarlarida arab tiliga xos morfologik shakllarni o‘zlashtirib, ularni turkiy matnga mahorat bilan uyg‘unlashtirganlar.

Morfologik arabizmlar - bu arab tiliga xos so‘z yasovchi affikslar (masalan, ismlarning sig‘alarini bildiruvchi veznlar), fe’lning zamон shakllari, ism faol ism maf’ul, nispalik (nisba) qo‘shimchalari, va boshqa grammatik birliklar turkiy matnda ishlatalishi orqali namoyon bo‘ladi. Bunday yondashuv Ubaydiyning nafaqat diniy bilimini, balki arab tilidagi morfologik shakllarga yaxshi egaligini ham ko‘rsatadi.

Quyida devondan olingan misollar orqali morfologik arabizmlarning ayrim ko‘rinishlari tahlil qilinadi.

1. Misol:

‘Ābidlar girdida bosh egdi g‘amgin faqīr¹⁶

Tarjimasi:

Ibodat qiluvchilar atrofida g‘amgin faqir bosh egdi.

¹³ Shukurov, Sh. Arab tili va o‘zbek adabiyoti o‘zaro ta’siri. Toshkent: TDYU nashriyoti. 2008– B. 59.

¹⁴ Muhammadjonov, A. O‘zbek tilining arabcha so‘zlar lug‘ati. Toshkent: Akademnashr. 2012– B. 34.

¹⁵ Qodirova, M.“Ubaydiy devonida arab tilining sintaktik ko‘rinishlari”. Sharq filologiyasi masalalari, №2. 2018– B. 52–55.

¹⁶ Убайдий.Девон/ Нашрга тайерловчи: А. Жураев- Ташкент: Фан нашриети. 1988- Б-52.

Tahlil:

Bu yerda ‘ābid (عبد – ibodat qiluvchi) arab tilining fa‘il sig‘asidagi ot bo‘lib, faol ismlardan sanaladi. Morfologik jihatdan arabcha shakli o‘zgarishsiz qabul qilingan.

2. Misol:

Mahbūb san’atin ko‘rub hayron qolar har bir bashar¹⁷

Tarjimasi:

Sevimlining san’atini ko‘rib, har bir inson hayratda qoladi.

Tahlil:

Mahbūb (محبوب – sevilgan) arabcha maf‘ūl sig‘asida yasalgan so‘z bo‘lib, o‘zbek tilida sinonimik ma’noda qo‘llanmoqda. U turkiy so‘z yasash andozasiga moslashtirilmagan, balki arab morfologiyasidagi shaklida saqlanib qolgan.

3. Misol:

‘Ulamo so‘zini tinglagay har ‘ārifün¹⁸

Tarjimasi:

Ulamo so‘zini har bir arif (ma’rifatli) eshitadi.

Tahlil:

Bu yerda arabcha ko‘plik shakli – ‘ārifün (عارفون) ishlatilgan. Turkiy tillarda bu ko‘plik “ariflar” tarzida berilishi mumkin, ammo shoir asl arabcha shaklini she’rda saqlagan¹⁹.

Bu kabi misollarni shoir devonida ko‘plab turlarini ko‘rishimiz mumkin, arabizmlarning bunday ko‘p qatlamlari (leksik, sintaktik, morfologik) ko‘rinishlari Ubaydiy devonining lingvopoetik boyligini ochib beradi. Bu arabizmlar diniy va falsafiy obrazlar, axloqiy mazmunlar, hayotiy kechinmalarni ifodalashda eng muhim vosita sifatida maydonga chiqadi. Shu orqali shoir turkiy she’riyatning estetik imkoniyatlarini kengaytiradi, uni arabislom madaniy konteksti bilan uyg‘unlashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, Ubaydiy devoni o‘zbek adabiy tili taraqqiyoti tarixida muhim manbalardan biri hisoblanadi. Mazkur devon nafaqat o‘zining poetik uslubi, balki undagi boy leksik va grammatic vositalar orqali o‘z davri madaniy va lingvistik manzarasini aks ettiradi. Xususan, devondagi arabizmlarning qo‘llanilishi shoirning arab tilini chuqr bilganligini, diniy-ilmiy madaniyatga yaxshi aloqador bo‘lganini ko‘rsatadi. Ushbu arabizmlar devon tilining boyishi va stilistik jihatdan yuksalishiga xizmat qilgan.

Devonda uchraydigan leksik arabizmlar ko‘pincha diniy, axloqiy, tasavvufiy, ilmiy va adabiy terminologiya bilan bog‘liq. Ular orasida “ma’nā”, “hikmat”, “sabāb”, “nafs”, “taqvō”, “aqliy” kabi so‘zlar shoir tafakkur doirasining kengligini bildiradi. Bu so‘zlar shunchaki o‘zlashgan emas, balki kontekstga mos tarzda, obrazli va funksional qo‘llanilgan.

¹⁷ Убайдий.Девон/ Нашрга тайерловчи: А. Жураев- Тошкент: Фан нашриети. 1988- Б-47.

¹⁸ Убайдий.Девон/ Нашрга тайерловчи: А. Жураев- Тошкент: Фан нашриети. 1988- Б -43.

¹⁹ Muhammadjonov, A. O‘zbek tilining arabcha so‘zlar lug‘ati. Toshkent: Akademnashr. 2012 – B- 83.

Sintaktik arabizmlar esa arab tilidagi izofa (idofa), qasamli iboralar, nidolar, duolar kabi sintaktik konstruktsiyalar orqali namoyon bo‘ladi. Masalan, “yā Rabbi”, “vallāhi”, “subhānalloh”, “husnu-l-xuluq” kabi ifodalar Ubaydiyning arab sintaksisini she’riy matnga moslashtirib qo‘llaganini anglatadi. Bunday tuzilmalar turkiy tilga xos bo‘lmagan bo‘lsa-da, shoir ularni badiiy jihatdan mazmunni chuqurlashtiruvchi vosita sifatida ishlatadi.

Morfologik arabizmlar darajasida esa shoir arab tilidagi so‘z yasovchi andazalarni o‘zbek tilida saqlagan. Jumladan, ism foil va ism maf’ul sig‘alari (masalan, ‘ābid’, “mahbūb”), nisba shakllari (“islāmī”, “sālikī”), arabcha ko‘plik (jam’) birlklari (‘ārifūn’, ‘ālimīn’) shoir tilida muhim o‘rin egallaydi. Bular shunchaki o‘zlashma bo‘lib qolmay, balki mazmunni boyituvchi va ritmik jihatdan muvozanatni ta’minlovchi birliklar sifatida xizmat qiladi.

Umuman olganda, Ubaydiy devoni tilidagi arabizmlarni o‘rganish nafaqat lingvistik, balki madaniy va adabiy jihatdan ham muhimdir. Chunki bu asar o‘zbek tilining tarixiy taraqqiyotida arab tili bilan bo‘lgan uzviy aloqaning yorqin guvohidir. Arabizmlarning bunday serqatlamli qo‘llanilishi o‘zbek adabiy tilining shakllanish jarayonida arab tilini tutgan o‘rni va ta’sirini ilmiy asosda tahlil qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qodirova, M. “Ubaydiy devonida arab tilining grammatic ko‘rinishlari”. Sharq filologiyasi masalalari, №2. 2018.
2. Kuprulizoda M.F. Turk adabiyotida ilk mutasavviflar. Ankara. 1984.
3. G‘anieva, N. Arabcha o‘zlashmalar morfologiyasi. Toshkent: TDPU nashriyoti. 2005
4. Jo‘raev G‘. Ubaydiy Devon. Toshkent: Yangi asr avlod. 2020.
5. Xamidov, A. “Ubaydiy she’riyatida arab morfologik birliklarining roli”. Adabiyotshunoslik, №4.2019
6. At-Tarjumon lug‘aviy manbalar asosida. Arabcha-o‘zbekcha grammatic tahlillar. Toshkent: Fan. 2017.
7. Muhammadjonov, A. O‘zbek tilining arabcha so‘zlar lug‘ati. Toshkent: Akademnashr. 2012.